

15-Oktyabr, 2025-yil

**AHOLINI IJTIMOIIY QO‘LLAB – QUVVATLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHDA BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI
FAOLIYATINING TAHLILI**

G‘.Xolmurodov

O‘zbekiston Milliy Universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aholining ijtimoiy qo‘llab – quvvatlash tizimini takomillashtirishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining o‘rni va faoliyati tahlil qilinib, global ijtimoiy siyosatni shakllantirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, aholining farovonligi va barqaror rivojlanishini ta’minlash, kambag‘allikka barham berishda mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish tizimining roli va ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish organlari, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”, “Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi”.*

Zamonaviy davrda aholining ijtimoiy qo‘llab – quvvatlanishi masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miqyosida iqtisodiy tengsizlik, ishsizlik, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar sonining ortishi, demografik o‘zgarishlar va global inqirozlar (pandemiya, migratsiya, iqlim o‘zgarishlari va boshqalar) ijtimoiy siyosatni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) faoliyati aholining ijtimoiy himoyasi va barqaror farovonligini ta’minlash yo‘lida muhim xalqaro mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948 yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” insonning asosiy huquq va erkinliklarini xalqaro darajada tan olgan eng muhim normativ – huquqiy hujjat sifatida e’tirof etiladi. Mazkur deklaratsiyaning 21 – moddasida “Har bir insonning o‘z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqi, teng sharoitda davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, shuningdek, hukumat hokimiyatining asosi sifatida xalq irodasining ustuvorligi”¹ aniq bayon etilgan.

Shuningdek, 22 – moddasida “Har bir inson jamiyatning a’zosi sifatida ijtimoiy xavfsizlik huquqiga ega ekani ta’kidlanadi. Ushbu modda insonning ijtimoiy – iqtisodiy huquqlarini ta’minlash davlat zimmasidagi muhim vazifalardan biri ekanini belgilaydi. Xususan, har bir fuqaroning yashash sifatini ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga yordam berish, teng imkoniyatlar yaratish va inklyuziv rivojlanishni ta’minlash

¹ Universal Declaration of Human Rights. United Nations General Assembly in Paris on 10 December 1948 (General Assembly resolution 217 A) URL: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

15-Oktyabr, 2025-yil

kabi masalalar davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan”².

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da qayd etilishicha, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi adolat, tenglik va ishtirokchilik tamoyillariga asoslangan bo‘lishi zarur. Bu esa ijtimoiy qo‘llab – quvvatlashning markazlashtirilgan yondashuv bilan cheklanmasdan, aksincha, fuqarolarga eng yaqin bo‘lgan mahalliy darajadagi o‘zini – o‘zi boshqaruv institutlarining faol ishtirokini talab qiladi. Bunday yondashuv subsidiarlik prinsipiga mos bo‘lib, boshqaruv vakolatlarini imkon qadar quyi darajada ya‘ni fuqarolarning o‘zi yashayotgan mahalla, jamoa yoki tuman darajasida amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish organlari, xususan, mahalla fuqarolar yig‘inlari, fuqarolarning ijtimoiy himoya tizimiga yaqin bo‘lishi, ularning ehtiyojlarini aniq bilishi, muammolarni tezda aniqlab, joyida hal etish imkoniyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da mustahkamlangan ijtimoiy xavfsizlik va fuqarolarning ishtirok huquqlarini amaliyotga tatbiq etishda mahalliy boshqaruv organlari hal qiluvchi institutiv vosita sifatida qaraladi. Ular davlatning ijtimoiy mas‘uliyatini hududiy miqyosda ro‘yobga chiqarishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da belgilangan ijtimoiy xavfsizlik, tenglik va fuqarolik ishtiroki tamoyillari zamonaviy ijtimoiy boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u o‘zini – o‘zi boshqarish tizimining ijtimoiy siyosatdagi rolini yanada mustahkamlash zarurligini anglatadi.

O‘ylaymizki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da aholini ijtimoiy qo‘llab – quvvatlash tizimining samaradorligi faqat mahalliy o‘zini – o‘zi boshqaruv organlarining faoliyatiga bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. Biroq, mahalliy organlar muhim vosita bo‘lishiga qaramay, samarali ijtimoiy qo‘llab – quvvatlashning ta’minlanishi markazlashtirilgan davlat siyosati, resurslar taqsimoti va me‘yoriy – huquqiy mexanizmlarning uyg‘un faoliyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, markaziy va mahalliy darajalardagi boshqaruv organlarining muvofiqlashgan va integratsiyalashgan faoliyati ijtimoiy siyosatning samarali amalga oshirilishi uchun muhim shart sifatida qaralishi lozim.

Mazkur yondashuvni huquqiy jihatdan mustahkamlovchi yana bir muhim xalqaro hujjat bu 1966 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” hisoblanadi. Mazkur pakt insonning iqtisodiy farovonligi, ijtimoiy barqarorligi va madaniy taraqqiyotini ta’minlashga doir fundamental huquqlarni xalqaro miqyosda tan oladi va ularni amalga oshirishni davlatlar zimmasiga yuklaydi.

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”ning 9 – moddasida “Har bir insonning ijtimoiy ta‘minoti, jumladan, ijtimoiy xavfsizlik huquqi e’tirof etilgan bo‘lib, bu huquq shaxsning hayoti davomida yuzaga keladigan kasallik,

² Universal Declaration of Human Rights. United Nations General Assembly in Paris on 10 December 1948 (General Assembly resolution 217 A) URL: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

15-Oktyabr, 2025-yil

nogironlik, ishsizlik, qarilik, yolg‘izlik yoki boshqa ijtimoiy zaif holatlardan himoyalanişini anglatadi”³. Bunday himoya tizimining samarali ishlashi nafaqat markaziy davlat tuzilmalarining, balki fuqarolarga eng yaqin bo‘lgan mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish organlarining faol ishtirokini talab etadi.

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”ning 11 – moddasi esa “Har bir insonning o‘zi va oilasi uchun yetarli darajadagi yashash sharoitlariga ega bo‘lish, shu jumladan, oziq – ovqat, kiyim – kechak va turar joy bilan ta‘minlanish, yashash sharoitlarini doimiy ravishda yaxshilash huquqini kafolatlaydi”⁴.

Mazkur huquqlarning amaliyotda samarali ta‘minlanishi uchun mahalliy darajadagi boshqaruv tuzilmalari, mahalla fuqarolar yig‘inlari fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki muhim hisoblanadi. Mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish organlari ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarning ehtiyojlarini aniqlash, manzilli yordamni tashkil qilish, ijtimoiy xizmatlarning qamrovi va sifati, aholi bandligini ta‘minlash va mahalla miqyosida ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ushbu paktning tamoyillari subsidiarlik, ishtirokchilik va manzillilik kabi zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan uzviy bog‘liqdir ya‘ni, ijtimoiy huquqlarni ro‘yobga chiqarishda qaror qabul qilish va xizmat ko‘rsatish imkon qadar quyi darajada, ya‘ni fuqarolarga yaqin bo‘lgan hududiy institutlar orqali amalga oshirilishi lozim. Bu esa mahalliy boshqaruv organlariga nafaqat ijrochi, balki ijtimoiy siyosatning faol subyekti sifatida qarash zarurligini anglatadi.

Bundan kelib chiqib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1966 – yilda qabul qilingan “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” ijtimoiy huquqlarni ta‘minlashda nafaqat markaziy davlat tuzilmalarining, balki mahalliy o‘zini – o‘zi boshqaruv organlarining faol ishtirokini talab qiladi, bundan tashqari paktida belgilangan subsidiarlik, ishtirokchilik va manzillilik prinsiplari mahalliy boshqaruv organlarini faqat ijrochi emas, balki ijtimoiy siyosatning faol subyekti sifatida qarashni taqozo etadi. Shu orqali mahalliy organlar ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarning ehtiyojlarini aniqlash, manzilli yordamni tashkil etish, mahalla miqyosida ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, “2015 – yil 25 – sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 70 – sessiyasida “2030 – yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” qabul qilinib, u 17 ta global maqsad va 169 ta vazifani o‘z ichiga oldi. Ushbu hujjat butun insoniyat uchun tinchlik, farovonlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga

³ UN International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. URL: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>

⁴ UN International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. URL: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>

15-Oktyabr, 2025-yil

asoslangan taraqqiyotning yangi global modelini shakllantirishni maqsad qiluvchi universal kun tartibi sifatida maydonga chiqdi”⁵.

“Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” nafaqat markaziy davlat institutlarining mas’uliyatini belgilab beradi, balki fuqarolarga eng yaqin bo‘lgan mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish organlari, xususan, mahalla institutining o‘rnini ham muhim strategik element sifatida e’tirof etadi. Mazkur yondashuv doirasida mahalla kabi tuzilmalar aholining ijtimoiy ehtiyojlarini bevosita hududiy darajada aniqlash, ularni tizimli ravishda tahlil qilish, ularga mos ijtimoiy xizmatlarni tezkorlik bilan taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lgan lokal boshqaruv subyektlari sifatida qaraladi. Ayniqsa, jamiyatda ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va inklyuziv siyosatni shakllantirish jarayonida mahalla institutining bevosita fuqarolar bilan uzviy aloqasi, ularning kundalik muammolariga yaqinligi hamda mavjud resurslarni adolatli taqsimlashdagi vositachilik roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, 1 – maqsad – “Qashshoqlikka barham berish” global darajadagi barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, moddiy nochorlikka barham berish, resurslardan foydalanishda adolat tamoyilini joriy etish va yordam choralarini aniq maqsadli guruhlar ehtiyojiga moslashtirishga urg‘u beriladi. Bu borada, mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish institutlari, aholining ijtimoiy ahvolini joyida o‘rganish, ehtiyojmand guruhlarni aniqlash, mahalliy ijtimoiy – iqtisodiy kontekstga mos yechimlar ishlab chiqishda muhim amaliy vosita sifatida maydonga chiqadi.

Shuningdek, 3 – maqsad – “Sog‘liqni saqlash va farovonlikni ta’minlash” yo‘nalishi doirasida mahalliy o‘zini – o‘zi boshqarish institutlari, xususan, mahalla tuzilmalari, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga nogironligi bo‘lgan fuqarolar, yolg‘iz keksalar, onalik holatidagi ayollar va voyaga yetmagan bolalarga mo‘ljallangan tibbiy xizmatlarni joyida aniqlash va koordinatsiyalashda muhim vositachi subyekt sifatida e’tirof etiladi. Ushbu maqsadga erishishda ijtimoiy xizmatlarni o‘z vaqtida va aholining ehtiyojlariga mos shaklda taqdim etilishi hal qiluvchi omil bo‘lib, bu esa sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirish bilan birga, fuqarolarning hayot sifati va umumiy farovonlik darajasini ham belgilaydi.

Bundan tashqari, “Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi”ning 10 – maqsadi “Tengsizliklarni kamaytirish” barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, jamiyatda mavjud iqtisodiy – ijtimoiy tengsizlikni qisqartirish, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish orqali inklyuziv muhitni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda mahalla o‘zini – o‘zi boshqarish institutlari muhim strategik pozitsiyani egallaydi. Aynan ushbu tuzilmalar aholining real holatini bevosita kuzatish, aholini ijtimoiy qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan manzilli ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish, uni joyida amalga oshirish imkoniga ega.

Shuningdek, “Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” doirasidagi 16 – maqsad – “Tinchlik, adolat va kuchli institutlar” jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi va

⁵ 70/1. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations General Assembly meeting in New York on 25 September 2015. URL: <https://docs.un.org/en/A/RES/70/1>

15-Oktyabr, 2025-yil

fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kuchaytiruvchi asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur maqsad, boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirish, ularning faoliyatida ochiqlik, javobgarlik va hisobdorlik tamoyillarini qaror toptirish orqali davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchli ijtimoiy aloqalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu yo‘nalishda fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlariga to‘laqonli jalb qilinishi, jamoatchilik nazorati institutlarining faoliyati kuchaytirilishi, ijtimoiy xizmatlar sifati, aholi ehtiyojlariga mosligini baholash mexanizmlarining ishlab chiqilishi zarur deb qaraladi.

Mahalla tizimining funksional roli ijtimoiy xizmatlar ustidan jamoaviy monitoring olib borish, resurslardan foydalanish ustidan nazorat o‘rnatish, aholi vakillarining muhim qarorlarni shakllantirish va baholashdagi ishtirokini ta’minlash kabi tamoyillarda o‘z ifodasini topadi. Shu asosda, mahalla tuzilmalari “Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi”da nazarda tutilgan demokratik, inklyuziv, hisobdor boshqaruv tizimining tubdan rivojlanishida bevosita ishtirok etuvchi, fuqaroviy jamiyat institutlari bilan uzviy hamkorlikda ishlovchi barqarorlik ustuniga aylanadi.

Fikrimicha, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” doirasidagi 1 – , 3 – , 10 – va 16 – maqsadlar mahallani nafaqat ijtimoiy xizmatlarni yetkazib beruvchi vositachi, balki fuqarolarning ehtiyojlarini tizimli ravishda aniqlovchi, manzilli siyosat ishlab chiqishda faol ishtirok etuvchi, resurslarni adolatli taqsimlovchi va qaror qabul qilish jarayonlariga jamiyat a’zolarining keng jalb etilishini ta’minlovchi strategik boshqaruv subyekti sifatida qayta pozitsiyalashni nazarda tutishini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, aholining ijtimoiy qo‘llab – quvvatlanish tizimini rivojlantirishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti ilgari surgan tamoyillarni milliy darajada mahalla boshqaruv tizimi bilan uyg‘unlashtirish, ijtimoiy siyosatning manzilliligi va samaradorligini oshirishga, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga hamda barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Universal Declaration of Human Rights. United Nations General Assembly in Paris on 10 December 1948 (General Assembly resolution 217 A) URL: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

2.UN International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. URL: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>

3.70/1. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations General Assembly meeting in New York on 25 September 2015. URL: <https://docs.un.org/en/A/RES/70/1>